

ISHLOKCHILIK VA KASBIY HURMAT

• Yana bir qancha hujjatlar va boshqalar...

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGANI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023-yil 21.08.2023-sonli buyruqi bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGANI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60211500 – Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) bakalavriat**  
**ta'lim yo'nalishining malaka talablari**

Markaziy Muloqot Markazi (M2) va boshqalar tomonidan ishlab chiqarilgan "Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari" va "Oliy ta'lim ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari" (S-1) klassifikatori, O'zbekiston Respublikasi Milliy ta'lim va fan vazirligi (M2) kasbiy standartlar va kadrlar boyronachilari tomonidan ishlab chiqarilgan hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hujjatlarini  
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
Toshkent-2023

**ЎЗР ОЎМТВ**  
Buyruq № 367  
21.08.2023 йил

## **ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

• Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti;

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil “21” 08 dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.



## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an‘anaviy cholg‘ular) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tavsifi</i> .....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an‘anaviy cholg‘ular) ta‘lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi</i> .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an‘anaviy cholg‘ular) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi</i> .....	4
1.2.1.	<i>60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an‘anaviy cholg‘ular) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari</i> .....	4
1.2.2.	<i>60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an‘anaviy cholg‘ular) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob‘ektlari</i> .....	4
1.2.3.	<i>60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an‘anaviy cholg‘ular) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari</i> .....	5
1.2.4.	<i>60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an‘anaviy cholg‘ular) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari</i> .....	5
2.	<i>60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an‘anaviy cholg‘ular) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar</i> .....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1	Kvalifikatsiya .....	7
2.3.2	<i>60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an‘anaviy cholg‘ular) ta‘lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar</i> .....	8
2.3.3	<i>60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an‘anaviy cholg‘ular) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi</i> .....	8
	<i>Bibliografik ma‘lumotlar</i> .....	9
	<i>Kelishuv varag‘i</i> .....	10



## **1.60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

**60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

**1.1.1. 60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi **60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

### **1.1.2 Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

–mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

–ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

–bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

–ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

–oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

–oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

–kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

–oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1. 60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60211500–Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular)** bakalavriat ta’lim yo‘nalishi–fan, ta’lim va san‘at sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, san‘at va madaniyat muassasalarida, davlat va mahalliy boshqaruv organlarida, davlat korxonalarida va tashkilotlarida, ta’lim muassasalarida, turli fondlar va loyihalarda hamda turli mulkchilik shaklidagi san‘atga oid ishlar bilan bog‘liq tashkiliy, ijodiy, iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, san‘at ta’lim sohasining tegishli yo‘nalishlari bilan bog‘liq kompleks masalalari mazmunini qamrab oladi.

**1.2.2. 60211500–Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:**

– san‘at sohasidagi tegishli jarayonlar;

– ijodiy faoliyat jarayonlari;

– mualliflik huquqi himoyasiga tegishli qoidalar, san‘at sohasining axborot va dasturiy ta‘minoti;

– yaratilgan asarlar va ularning targ‘iboti;

– ijodiy g‘oyalarni loyihalash va amaliyotga tatbiq qilish jarayonlari;

– o‘quv-tarbiya jarayoni.



**1.2.3.60211500—Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ijodiy-ijrochilik;
- professional ta’lim, kasb-hunar, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari hamda musiqa va san‘atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda pedagogik;
- ijtimoiy ma’rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati.

**1.2.4.60211500—Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari:**

60211500—Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

**Ijodiy-ijrochilik faoliyatida:**

- musiqiy asarlarni yuksak badiiy saviyada ijro etish bilan bog‘liq ijodiy ishlarni olib borish;
- ularni ijro etish ko‘nikmalari va zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallash;
- ijro etilayotgan asarlarining mazmuni, shakli va uslubini baholash;
- katta va kichik jamoalarni badiiy rahbar sifatida boshqara olish;
- ansambllarga rahbarlik qila olish;
- musiqiy asarlarning badiiy konsepsiyasini yaratib, teatr-konsert muassasalari, ansambllarda sozandalik qilish;
- musiqasining mazmuni, shakli va uslubini tushunish;
- ijrochilikda badiihago‘ylik san‘atini qo‘llash;
- jamoada ijrochilik qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

**Professional ta’lim, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatda:**

- professional ta’lim, kasb-hunar, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, maktabdan tashqari ta’lim tizimining ixtisoslikka mos ta’lim muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy, amaliy va yakka (laboratoriya) mashg‘ulotlarini o‘tkazish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish usullarini ishlab chiqish va o‘tkazish;
- o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjatlarni shakllantirish va tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun o‘qitishning didaktik vositalaridan foydalanishi;
- mustaqil ta’lim va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o‘qitilayotgan fan bo‘yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;
- o‘quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish;
- musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash va ta’lim jarayoniga singdirish;
- o‘quv jarayonini, o‘quv-uslubiy, ma’naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg‘or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- ijodiy jarayonlarni tashkil etish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- ijodiy jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- informatsion texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy jarayonlarni monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ijodiy jarayonlarni nazorat qilish;



- ijrochilik ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq qilish;
- ijodiy jarayonda sifatni boshqarish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi musiqiy asarlarni qayta ishlash ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda musiqa ijrochiligiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy-ijodiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- musiqa san'atiga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;
- kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;
- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish.

## **2. 60211500–Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- barqaror rivojlanish va media falsafa masalalarini kasbiy faoliyatda qo'llay olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, hamkorlik yozishmalari va elektron aloqalarni olib borish, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil eta olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- cholg'u sozi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'lish, muayyan cholg'uning professional ijro uslubini o'zlashtirish, ashula yo'llarini cholg'u yo'lga moslash, ijrochilik maktablarini farqlay olish, jo'rnavozlik va yakka ijrochilik mahoratini egallash, ijrochilik mahoratini va san'atini ko'p sonli tinglovchilarga to'liq yetkazib bera olish qobiliyati;
- boshqaruvchanlik salohiyatiga ega bo'lish, jamoaviy ijrochi, mustaqil kasbiy ish faoliyat ko'rsatadigan va yuqori musiqa ijrochilik mahoratiga ega kadr bo'lish, ansambl ijrochiligi tarixi, ijrochilik maktablari, usul va uslublarini o'rganish hamda ish jarayonida qo'llay olish, bo'lajak sozandalar ansambli rahbari sifatida xonandalar ansambliga jo'rnavozlik qilish, ansamblida sozlar taqsimoti bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish, xonanda va sozandalar ansamblari ijrosi xususida tanqidiy fikrlay olish mahorati;



–ijrochi sifatida o‘zbek milliy cholg‘ularining kelib chiqish tarixi, tuzilishi, ijrochilik uslubiyoti, ijrochilik imkoniyatlari, ijrodagi bezaklar, zarblar hamda, mohir ijrochilari haqida umumiy ma’lumotlarni bilish, bir nechta cholg‘u sozida kuy ijro eta olish;

–o‘zbek mumtoz she’riyatining yetuk namoyandalari hayoti va ijodi, g‘azallar tahlili, aruz vazni va boshqa she’riy janrlar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish;

–fors tilida kasbiy faoliyatiga oid musiqiy risolalar, ilmiy tadqiqotlar mohiyatini tushunishi, g‘azallarni tahlil qilishda foydalanish, ijrochilik bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilish.

### 2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar:

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Pedagogik amaliyot – pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

**2.3.1. Kvalifikatsiya:** Konsert ijrochisi, ansambl sozandasi, o‘qituvchi, jo‘rnavor. (“Qo‘shimcha cholg‘ularni o‘rganish” fanini yuqori darajada o‘zlashtirgan bitiruvchiga o‘rgangan cholg‘usining nomi qavs ichida ko‘rsatiladi.).

№	Amaliyot nomi	Soat	Shaxs	Shaxs	Shaxs
1.14	SHAXS				
1.15	AMALIYOT				
1.16	AMALIYOT				
1.17	AMALIYOT				
1.18	AMALIYOT				
1.19	AMALIYOT				
1.20	AMALIYOT				
1.21	AMALIYOT				
1.22	AMALIYOT				
1.23	AMALIYOT				
1.24	AMALIYOT				
1.25	AMALIYOT				
1.26	AMALIYOT				
1.27	AMALIYOT				
1.28	AMALIYOT				
1.29	AMALIYOT				
1.30	AMALIYOT				
1.31	AMALIYOT				
1.32	AMALIYOT				
1.33	AMALIYOT				
1.34	AMALIYOT				
1.35	AMALIYOT				
1.36	AMALIYOT				
1.37	AMALIYOT				
1.38	AMALIYOT				
1.39	AMALIYOT				
1.40	AMALIYOT				
1.41	AMALIYOT				
1.42	AMALIYOT				
1.43	AMALIYOT				
1.44	AMALIYOT				
1.45	AMALIYOT				
1.46	AMALIYOT				
1.47	AMALIYOT				
1.48	AMALIYOT				
1.49	AMALIYOT				
1.50	AMALIYOT				
1.51	AMALIYOT				
1.52	AMALIYOT				
1.53	AMALIYOT				
1.54	AMALIYOT				
1.55	AMALIYOT				
1.56	AMALIYOT				
1.57	AMALIYOT				
1.58	AMALIYOT				
1.59	AMALIYOT				
1.60	AMALIYOT				
1.61	AMALIYOT				
1.62	AMALIYOT				
1.63	AMALIYOT				
1.64	AMALIYOT				
1.65	AMALIYOT				
1.66	AMALIYOT				
1.67	AMALIYOT				
1.68	AMALIYOT				
1.69	AMALIYOT				
1.70	AMALIYOT				
1.71	AMALIYOT				
1.72	AMALIYOT				
1.73	AMALIYOT				
1.74	AMALIYOT				
1.75	AMALIYOT				
1.76	AMALIYOT				
1.77	AMALIYOT				
1.78	AMALIYOT				
1.79	AMALIYOT				
1.80	AMALIYOT				
1.81	AMALIYOT				
1.82	AMALIYOT				
1.83	AMALIYOT				
1.84	AMALIYOT				
1.85	AMALIYOT				
1.86	AMALIYOT				
1.87	AMALIYOT				
1.88	AMALIYOT				
1.89	AMALIYOT				
1.90	AMALIYOT				
1.91	AMALIYOT				
1.92	AMALIYOT				
1.93	AMALIYOT				
1.94	AMALIYOT				
1.95	AMALIYOT				
1.96	AMALIYOT				
1.97	AMALIYOT				
1.98	AMALIYOT				
1.99	AMALIYOT				
2.00	AMALIYOT				



**2.3.2. 60211500–Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:**

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratiladigan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	6300	210
Tanlov fanlar	360	12
Malakaviy amaliyot	390	13
Bitiruv malakaviy ishi	150	5
<b>JAMI:</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>

**2.3.3. 60211500–Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>6300</b>	<b>210</b>	
1.01	MCHI1820	Maqom cholg‘u ijrochiligi	600	20	1-8
1.02	AS1852	Ansambli sinfi	1560	52	1-8
1.03	XKN1102	Xalq kuylarini notalashtrish	60	2	5
1.04	MCHIO‘U1205	Maqom cholg‘u ijrochiligida o‘qitish uslubiyoti	150	5	7-8
1.05	ABIU1205	Ansambli bilan ishlash uslubiyoti	150	5	7-8
1.06	MTG‘P1205	Maqom turkumidagi g‘azallar poetikasi	150	5	5-6
1.07	SM1205	Sahna madaniyati	150	5	5-6
1.08	FT1410	Fors tili	300	10	1-4
1.09	TCHO‘1407	Turdosh cholg‘ularni o‘rganish	210	7	1-4
1.10	CHK.CHSH1205	Cholg‘ushunoslik. Cholg‘ulashtirish (Milliy cholg‘ular ansambli).	150	5	1,5
1.11	JMT 1205	Jahon musiqasi tarixi	150	5	1-2
1.12	O‘MT1410	O‘zbek musiqasi tarixi	300	10	1-4
1.13	O‘BII205	O‘zbek bastakorlik ijodiyoti	150	5	5-6
1.14	SHXMT1205	Sharq xalqlari musiqasi tarixi	150	5	5-6
1.15	XMI1205	Xalq musiqa ijodiyoti	150	5	3-4
1.16	S.MS.1306	Solfedjio. Maqom solfedjio	180	6	1-3
1.17	G1205	Garmoniya	150	5	4-5
1.18	MAT1205	Musiqa asarlari tahlili	150	5	6-7
1.19	FNO1202	Fortepiano	60	2	1-2
1.20	AM1205	Aruz va musiqa	150	5	1-2
1.21	SHPA1205	Shashmaqom parda (lad) asoslari	150	5	4-5
1.22	MA1512	Maqom asoslari (maqomlar tahlili)	360	12	3-7
1.23	MPP1205	Musiqiy pedagogika va psixologiya	150	5	7-8
1.24	KP1105	Kasbiy pedagogika	150	5	8
1.25	ATM1102	Axborot texnologiyalarida musiqani matematik modellashtirish	60	2	5
1.26	DNK1204	Dinshunoslik	120	4	2-3
1.27	FFA1104	Falsafa	120	4	8
1.28	O‘YT1204	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1-2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>3-8</b>
		<b>Jami</b>	<b>6660</b>	<b>222</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>390</b>	<b>13</b>	<b>2,4,6,8</b>
		<b>Bitiruv malakaviy ishi</b>	<b>150</b>	<b>5</b>	<b>8</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatini baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyat, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlar bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, ijrochi-ijodkorlik, ilmiy tadqiqot jarayoni.



**Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti  
60211500–Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha  
malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim  
muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2023 yil

Biz quyidagi imzo chekuvchilar–O‘zbek milliy maqom san’ati markazi direktori S.Begmatov, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rektori K.Urinbayev, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti rektori O.Nazarbekov birgalikda Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSiDa ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60211500–Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) ta’lim yo‘nalishi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5131-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019-2020 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-4369-son Qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O‘zbek milliy maqom san’ati  
markazi direktori**

**O‘zbekiston davlat  
konservatoriyasi rektori**

**Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek  
milliy musiqa san’ati instituti rektori**

**S.Begmatov**

**K.Urinbayev**

**O.Nazarbekov**





Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar istemolchilari  
**ISHLAB CHIQILGAN:**



Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy  
musiqqa san'ati instituti

Rektor [Signature] O.A.Nazarbekov

2023 yil « 14 » 08

M.O'.

**KELISHILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi



Direktor [Signature] Sh.U.Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat va turizm vazirligi  
"Ta'lim va ilm fanni rivojlantirish  
boshqarmasi"

Boshqarma boshlig'i [Signature] N.K.Kasimov

2023 yil « 15 » 08



M.O'.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat  
instituti




Rektor [Signature] E.O'.Shermanov

2023 yil « 15 » 08

M.O'.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi



Rektor [Signature] K.T.Urinbayev

2023 yil « 16 » 08.

M.O'.

O'zbekiston kompozitorlari va  
bastakorlari uyushmasi



Rais [Signature] R.A.Abdullayev

2023 yil « 17 » 08

M.O'.

O'zbek milliy maqom san'ati  
markazi



Direktor [Signature] S.M.Begmatov

2023 yil « 17 » 08.

M.O'.